

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ALKOGOLIZM — ETILOGIYASI, BOSQICHLARI, ZARARLARI, TASHXISLASH, ICHKILIKBOZLIKNI DAVOLASH

Nizomova Dilfuza Muxtor qizi

2-Farg'ona tibbiyot kolleji Hamshiralik ishi fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Alkogolizm (lot. alcoholismus), shuningdek ichkilikbozlik, surunkali alkogolizm, surunkali alkogolli intoksikatsiya, etilizm, alkogolli toksikomaniya va boshqalar — surunkali psixik progredient kasallik, toksikomaniyaning bir turi, alkogolga (etil spirtga) ruju qo'yish va unga aqliy va jismoniy jihatdan qaram bo'lish bilan tavsiflanadi. Alkogolizm qabul qilinadigan alkogol miqdorini nazorat qila olishni yo'qotish, alkogolga nisbatan tolerantlikning oshishi, abstinent sindrom, a'zolarning toksik shikastlanishi va mastlik paytida sodir bo'lgan ayrim voqealarni eslay olmaslik bilan xarakterlanadi.

Kalit so'zlar: alkogolizm, alkogolik, dipsomaniya, asetaldegid, alkogolli anozognoziya, detoksitatsiya, mastlik, agressiya, medikamentoz, sedativ

XIX asrga kelib aholi farovonligining oshishi bilan alkogolizm ham oshadi deb hisoblangan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti dunyoda alkogolizm bilan kasallanish muntazam ko'payib borishini aytmoqda: 2000- yilda dunyoda 140 millionga yaqin odam alkogolizmga chalingan bo'lsa, 2010-yilda bu ko'rsatkich 208 millionga yaqin kishiga yetdi: bunday tendentsiya bilan, 2050-yilga kelib dunyodagi alkogolizmga chalinganlar soni bu raqamlardan ham oshib ketishi mumkin, bu 9,5 milliard aholidan 500 million kishi, ya'ni har 19 kishidan bittasi deganidir.

Amerika tibbiyot assotsiatsiyasi jurnali (Journal of the American Medical Association) alkogolizmga: «spirtli ichimlik ichishni nazorat qilishning buzilishi, alkogolga ruju qo'yish, salbiy oqibatlariga qaramasdan spirtli ichimliklarni ichishni davom ettirish va fikrlashning buzilishi bilan tavsiflanadigan birlamchi surunkali kasallik» deb ta'rif bergan.

DSM-IV (psixiatriya va fiziologiyada diagnostika standarti) ichkilikbozlikni spirtli ichimliklarni takrorlanuvchi salbiy oqibatlarga qaramasdan takroriy ravishda ichish deya ta'riflaydi.

APA Dictionary of Psychologic ma'lumotlariga ko'ra, alkogolizm — spirtli ichimliklarga qaramlik terminining kundalik nomidir. Shuni ta'kidlash kerakki, bunda qaysi turdagi qaramlik nazarda tutilganligi haqida bahslar



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

mavjud: jismoniy (abstinent sindromi bilan xarakterlanadi), psixologik (shartli refleksning mustahkamlanishi asosida) yoki har ikkalasi.

ETIOLOGIYASI

Albatta, spirtli ichimliklarni qabul qilishning sababi uning odamga ta'siri, masalan, eyforiya, uyquchanlik, soxta isinish hissi va boshqalarni chaqirishidir. Alkogolizmning etiologiyasiga ko'plab qarashlar mavjud. Masalan, W Sudduth (1977), kasallikning rivojlanishi asosi etanolning oshqozon-ichak traktiga ta'sir qilishi bilan bog'liq deb hisoblagan. Uning nazariyasiga ko'ra, etanol oziqa moddalarini so'rilishini ingibitsiya qiladi, ammo toksinlarning so'rilishini kuchaytiradi. Asta-sekin toksinlar miqdori tobora ko'payib boradi va bunda antibakterial va neyroblokator agent faqatgina etanol bo'lib qoladi. U inson holatini vaqtincha yaxshilaydi va «kompulsiv intilishni» belgilaydi. Shunda oxiri berk aylana hosil bo'ladi. Pyatnitskaya yozganidek: «Aynan toksik yopiq aylana alkogolizmning neyrologik va genetik simptomatikasini tushuntiradi».

Bugungi kunda alkogolli ichimliklarni o'tkir va surunkali iste'mol qilishning miya tizimlarining neyrokimyoviy funksiyasiga ta'siri o'rganilmoqda, masalan, etanolning markaziy asab tizimiga ta'sirining mexanizmlarida gamma-aminomoy kislotaga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ammo, kasallikning mexanizmi aniq emasligiga qaramasdan, uning asosiy manbai bo'lib spirtli ichimliklar va ularning ta'siri xizmat qiladi. Bundan tashqari, ko'p narsa biologik, psixologik va ijtimoiy omillarga bog'liq.

- Ijtimoiy omillar. Aholi farovonligi oshishi bilan alkogolizm darajasi oshib borishi XIX asrdayoq isbotlangan edi. 10% erkak-alkogolik va 50% ayol-alkogoliklar alkogolizm bilan kasallangan shaxslar bilan turmush qurishgan. Mastlikka va o'z navbatida alkogolizm rivojlanishiga ko'plab an'analar ham hissa qo'shadi. Spirtli ichimliklarga qaramlik rivojlanishi ehtimoli turli xil kamsitilgan yoki boshqalardan ajralib turuvchi ijtimoiy guruhlarda ko'proq bo'ladi. Misol uchun, Qo'shma Shtatlarda gomoseksuallar orasida alkogolizm darajasi ancha yuqori, bu ularning moslashuvchanligi qiyinchiliklari bilan bog'liq.

- Mastlikka biologik moyillik (yoki jismoniy omil). Bunday fikrlar mavjud bo'lgan va hozirda ham mavjud. O'zgarishi va mutatsiyalari spirtli ichimliklarni iste'mol qilish darajasi va alkogolizm xavfi bilan assotsiatsiyalanadigan genlar: **ADH1B**.

- Psixologik omil. Markaziy asab tizimining depressanti bo'lib, alkogol qadimgi davrlardan buyon odam tomonidan ishlatilgan. Zaif, yaxshi



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

tashkillashmagan shaxs bu dunyoda o'zini tobora ko'proq yo'qotib qo'ymoqda va natijada ichkilikka berilib ketmoqda. Ma'lum bir psixiatrik kasallikning fonida alkogolizasiya og'ir shakl hisoblanadi.

PATOGENEZI

Monoetiologik tamoyil asosida alkogolizmni o'rganishga urinishlar qilingan bo'lsa-da, kasallik patologiyasi bo'yicha savol ochiq bo'lib qolmoqda. Ba'zilar psixotik buzilishlar juda tez yuzaga keladi, boshqalarda esa jarayon sekin, destruktiv-organik hisoblanadi. Alkogolning muayyan a'zolarga ta'sirini o'rganish boshlandi. Ko'p qirrali izlanishlar natijasida turlicha patologiyaning yagona radikali — alkogoliklarning gipoadrenergiyasi ma'lum bo'ldi. Muayyan neyronal tizimidan kelib chiqib qaramlikning ta'siri ham hali o'rganilmagan. Bunda faqat qay bir a'zolar eng ko'p surunkali intoksikatsiyaga duchor bo'lganiga qarab hukm chiqarish mumkin.

Alkogolizm psixik buzilishlar va ichki a'zolarning o'ziga xos alkogolli shikastlanishlarining kuchayib boradigan simptomatologiyasi bilan ajralib turadi. Alkogolni organizmga ta'sir qilishining patogenetik mexanizmlari tirik to'qimalarga, xususan, inson tanasiga etanolning bir necha turdagi ta'siri bilan vositalanadi.

I. P. Anoxinaning fikriga ko'ra, alkogol psixoaktiv ta'sirining asosiy patogenetik tarkibiy qismi turli neyromediator tizimlarining, xususan katexolamin tizimining faollashuvidir. Markaziy asab tizimining turli darajalarida ushbu moddalar (katexolaminlar va endogen opiatlar) og'riqni sezish porogining ko'payishi, hissiyotlar va xatti-harakatlar reaksiyalarining paydo bo'lishi kabi turli xil ta'sirlarni belgilaydi. Alkogolli ichimliklarni surunkali ravishda iste'mol qilish oqibatida ushbu tizimlar faoliyatining buzilishi spirtli ichimliklarga qaramlikning rivojlanishi, abstinent sindrom, alkogolga qarshi tanqidiy nuqtai nazarning o'zgarishi va boshqalarga olib keladi.

Alkogolning oksidlanishida organizmda surunkali intoksikatsiyaning rivojlanishiga olib keladigan zaxarli modda — asetaldigid hosil bo'ladi. Asetaldigid ayniqsa qon tomirlari devorlariga (ateroskleroz rivojlanishini rag'batlantiradi), jigar to'qimasiga (alkogolli gepatit), miya to'qimasiga (alkogolli ensefalopatiya) kuchli toksik ta'sir ko'rsatadi.

ALKOGOLIZM BOSQICHLARI

Ushbu kasallik patologiya sifatida bir necha bosqichdan o'tadi, bunda ular alkogolli qaramlikning bosqichma-bosqich ko'payishi, spirtli ichimliklar ichishda o'zini



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

nazorat qilishni yo'qotish, shuningdek, alkogol bilan surunkali intoksikatsiya natijasida chaqirilgan turli somatik buzilishlarning progressiv rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Alkogolizmning eng oddiy differentsiatsiyasi ichkilikbozlikning klinik va ruhiy alomatlari, shuningdek iste'mol qilinadigan spirtli ichimliklar miqdori va kunlik soniga asoslanadi. Bunda shaxs spirtli ichimliklarni qay tartibda ichishi bo'yicha quyidagi guruhlar ajratiladi:

1. Umuman iste'mol qilmaydigan shaxslar;
2. Me'yorda iste'mol qiladigan shaxslar;
3. Suiste'mol qiluvchi shaxslar (spirtli ichimliklarga qaramlikning rivojlanishi):
 1. Alkogolizm belgilari bo'lmagan holda
 2. Alkogolizmning dastlabki belgilari bilan (vaziyat va dozani nazorat qilish, mayzadalik)
 3. Alkogolizmning sezilarli belgilari bilan (muntazam mayzadaliklar, ichki a'zolarining shikastlanishi, alkogolizmga xos ruhiy kasalliklar).

Yuqorida keltirigan tasniflashdan ko'rinib turganidek, spirtli ichimliklarga qaramlik alkogolni tasodifiy iste'mol qilish epizodlaridan og'ir alkogolizm bilan kasallanishga qadar rivojlanadi.

Ko'pincha, alkogolizmga chalingan bemorlar (barcha bosqichlarda) kasal ekanini inkor etadi yoki vaziyatni yetalicha jiddiy deb hisoblamaydi. Ushbu hodisa alkogolli anozognoziya deb ataladi.

Alkogolizmni progredient surunkali kasallik deb hisoblash doirasida kasallik rivojlanishida uchta asosiy bosqich ajratiladi.

BIRINCHI BOSQICH

Alkogolizmning birinchi bosqichida bemorda spirtli ichimliklar iste'mol qilishga bostirish qiyin bo'lgan istak uyg'onadi. Agar spirtli ichimlikni ichish imkoni bo'lmasa, intilish hissi vaqtincha yo'qoladi, ammo alkogol qabul qilish holatida ichiladigan miqdorni nazorat qilish qobiliyati keskin pasayib ketadi. Kasallikning bu bosqichida mastlik ko'pincha haddan tashqari qo'zg'alganlik, agressiya va hatto xotira yo'qotilishi (bu bosqicha kamdan-kam hollarda) bilan kechadi.

Bemorda spirtli ichimliklarga qarshi tanqidiy nuqtai nazar yo'qoladi, u har bir spirtli ichimliklarni iste'mol qilish holatini oqlashga harakat qiladi. Birinchi bosqichning oxirida tolerantlikning (spirtli ichimliklarni ko'tara olish qobiliyati) sezilarli o'sishi kuzatiladi. Alkogolizmning birinchi bosqichi asta-sekin ikkinchi bosqichga o'tadi. Bu bosqichda ichkilikni tashlash nisbatan eng osondir.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

IKKINCHI BOSQICH

Alkogolizmning ikkinchi bosqichi alkogolga tolerantlikning sezilarli darajada o'sishi bilan ajralib turadi va asta-sekin u eng yuqori darajaga — «tolerantlik platosi»ga yetadi. Asta-sekin odam iste'mol qilinadigan alkogol miqdori ustidan nazoratni batamom yo'qotadi. Ushbu bosqichda spirtli ichimliklarga jismoniy qaramlik mavjud bo'ladi. Kasallikning aynan ikkinchi bosqichida bosh og'rig'i, tashnalik, asabiylashish, uyqu bilan bog'liq muammolar, yurak sohasida og'riq, oyoq-qo'llarning yoki butun vujudning titrashi bilan birga kechadigan abstinentali alkogolli sindrom yuzaga keladi. Bunda qaramlikning yopiq aylanasi hosil bo'ladi — to'xtatib bo'lmaydigan bir necha kunlab mastlik. Tibbiy yordamsiz mayzadalikning (zapoyning) keskin uzilishi turli asoratlarga, hatto metalkogol psixozga ham olib kelishi mumkin. Ushbu bosqichda hali kasallikni davolasa bo'ladi.

UCHINCHI BOSQICH

Spirtli ichimliklar ichish istagi kuchayib boradi, mutanosib ravishda o'zini nazorat qilish qobiliyati kamayadi. Organizm endi oz miqdordagi spirtli ichimliklarga ehtiyoj sezadi. Bunday holda, psixikadagi buzilishlar tobora ko'proq amneziyaga sabab bo'ladi. Ruhiiy, jismoniy va ijtimoiy degradatsiya kuchayadi. Sekin-asta «chin zapoy» degan tushunchaga yaqin bo'lgan holat yuzaga keladi — odamda endida ongsiz ravishda alkogolga chidab bo'lmas intilish uyg'onadi. Mast bo'lish uchun organizmga ozgina miqdorda alkogol (bir ryumka va undan ham kam) yetarli ekanligi sababli, bunday zapoy ba'zida tananing to'liq holsizlanishi bilan tugaydi. Ushbu vaqtga kelib ruhiy kasalliklar tuzatib bo'lmas shaklga o'tadi, alkogolli degradatsiya boshlanadi. Tegishli tibbiy yordamsiz uzilib qolgan zapoy ko'pincha metalkogol psixoz bilan birga kechadi. Uchinchi bosqichdagi alkogolizmni davolash o'ta murakkab hisoblanadi.

Alkogolizmning kamprogreident (statsionar) kechishi bilan kasallikning asosiy alomatlari progressiyasi ancha past bo'ladi.

DIAGNOSTIK BELGILARI

«Alkogolizm» tashxisini qo'yish uchun bemorda quyidagi belgilar mavjudligi tekshiriladi:

- Ko'p miqdordagi spirtli ichimliklarni iste'mol qilishda qayt qilish reaksiyasi yo'qligi;
- Ichilgan alkogol miqdori ustidan nazoratni yo'qotish;
- Qisman retrograd amneziya;
- Abstinental sindrom mavjudligi;



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

- Zapoyli mastlik.

ALKOGOLIZMNI DAVOLASH

Ichkilikbozlikni davolash u paydo bo'lishining barcha sabablariga yo'naltirilgan bo'lishi kerak: biologik (dezintoksikatsiya, farmakoterapiya), psixologik (psixoterapiya), ijtimoiy (hech bo'lmasa, terapiya oiladagi munosabatlarni o'zgartirishga, bundan tashqari, alkogolizm bilan og'rigan bemorning ijtimoiy va mehnat adaptatsiyasiga qaratilgan bo'lishi kerak). Boshqacha aytganda, alkogolizmni zamonaviy shaklda davolash keng qamrovli bo'lishi va faqatgina biologik terapiyani emas, balki psixoterapiyaning turli shakllarini, shuningdek, ijtimoiy choralarni o'z ichiga olishi kerak.

Alkogolizmni davolash uchun narkolog-shifokorga murojaat etish kerak.

MEDIKAMENTOZ DAVOLASH

Spirтли ichimliklarga qaramlikni bartaraf etish va surunkali alkogolli intoksikatsiyadan kelib chiqqan kasalliklarni bartaraf etish uchun ishlatiladi. Umuman olganda, ichkilikni medikamentoz davolashda barcha usullar bemorga kiritilgan dori vositasi va spirtning mos kelmasligi tufayli organizmda bemorning o'limiga olib kelishi mumkin bo'lgan moddalar hosil bo'ladi degan qo'rquvni uyg'otishga asoslanadi. Davolashning bu usuli aversiv terapiya deyiladi.

Disulfiram preparati alkogol iste'mol qilganda og'ir holsizlik chaqiradi va karbimid kaltsiy bilan birgalikda qabul qilinganda 50 foizdan ortiq hollarda bemorning alkogol ichishni tashlashiga olib keladi. Shuningdek faqat kaltsiy karbamidni o'zini ichish ham mumkin, uning ta'siri disulfiramga o'xshash, ammo uning afzalligi gepatotoksikligi yo'qligi va uyqu chaqirmasligida.

Naltrekson spirtli ichimliklarni ichish istagini kamaytirish, ichkilikdan tiyilishga yordam berish va alkogolli ichimliklarning yoqimli ta'sirini kamaytirish uchun ishlatiladi.

Akamprosatsit alkogol ichish ta'sirida o'zgargan miya kimyosini barqaror qiladi va alkogolga qaram bo'lganlar orasida retsivlar sonini kamaytiradi. Rossiyalik bioelementolog professor A. V. Skalniy alkogoliklarda rux preparatlari ta'siri ostida (alkogoldegidrogenaza fermenti molekulasiga 4 ta rux atomi kiradi) alkogolli zaharlanish va abstinetsiyalar tezroq o'tib ketgani, ular kuchlari tiklanishini tezroq his etishgani, kasalxonada yotganida kamroq shamollashli va yallig'lanishli kasalliklarga duchor bo'lishgani, ularda jigar normal faoliyat ko'rsatayotganini ko'rsatuvchi laborator ko'rsatikichlar tezroq normaga qaytishi, teri qoplamlarining holati tezroq me'yorga qaytishi kuzatilganini ta'kidlagan.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/alkogolizm>
2. <https://mymedic.uz/kasalliklar/spirtliichimliklar>
3. <https://uz.approby.com/alkogol/>
4. <https://med360.uz/kasalliklar/alkogolizm/>



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

